


**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>

COMPARATIVE LINGUOCULTURAL ANALYSIS OF PHRASEOLOGICAL UNITS WITH MELON/CUCURBIT CROPS AND FRUIT COMPONENTS (BASED ON THE GERMAN AND UZBEK LANGUAGES)

Tilovatkhon Rakhmatjonovna Khamidova

Senior Lecturer, Department of Foreign Languages

Tashkent State Agrarian University

E-mail: miss_till11@mail.ru

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: phraseology, phraseological combination, equivalence, absolute equivalent, linguacultural studies, fruit component, melon crops, metaphor, agrarian culture.

Received: 08.03.26

Accepted: 09.03.26

Published: 10.03.26

Abstract: This article is devoted to a comparative analysis of phraseological units containing melon and fruit components, which constitute essential parts of the "flora" concept in the German and Uzbek languages. The study highlights the role of this thematic group within the phraseological systems of both languages, their semantic scope, and aspects of their connection to the national mentality. The article reflects the commonalities and distinctive features of flora-component phraseology in the German and Uzbek languages, which belong to different language families.

POLIZ EKINLARI VA MEVA KOMPONENTLI FRAZELOGIZMLARNING QIYOSIY, LINGVOMADANIY TAHLILI (NEMIS VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA)

Tilovatxon Raxmatjonovna Xamidova

Toshkent davlat agrar universiteti

Xorijiy tillar kafedrasi katta o'qituvchisi

E-Mail: miss_till11@mail.ru

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: frazeologiya, frazeologik birikma, muvoqabilik, to'liq muqobil, lingvokulturologiya, meva komponenti, poliz ekinlari, metafora, agrar madaniyat.

Annotatsiya: Ushbu maqola nemis va o'zbek tillaridagi flora konseptining muhim tarkibiy qismlaridan iborat bo'lgan poliz ekinlari va meva komponentli frazeologizmlarning qiyosiy tahliliga bag'ishlangan. Tadqiqotda ushbu tematik guruhning har ikki til frazeologik tizimidagi

oʻrni, ularning semantik koʻlami va xalq mentaliteti bilan bogʻliqlik jihatlari yoritilgan. Turli til oilalariga mansub nemis va oʻzbek tillarida flora komponentli frazeologizmlar bir qator oʻziga xosliklari bilan ajralib turishi va ulardagi umumiyliklar mazkur maqolada oʻz aksini topadi.

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ С КОМПОНЕНТАМИ БАХЧЕВЫХ КУЛЬТУР И ФРУКТОВ (НА МАТЕРИАЛЕ НЕМЕЦКОГО И УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКОВ)

Тиловатхон Рахматжоновна Хамидова

Старший преподаватель кафедры иностранных языков

Ташкентский государственный аграрный университет

E-mail: miss_till11@mail.ru

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: фразеология, фразеологическое сочетание, эквивалентность, полный эквивалент, лингвокультурология, фруктовый компонент, бахчевые культуры, метафора, аграрная культура.	Аннотация: Данная статья посвящена сравнительному анализу фразеологизмов с компонентами бахчевых культур и фруктов, которые являются важными составляющими концепта «флора» в немецком и узбекском языках. В исследовании освещаются роль данной тематической группы во фразеологических системах обоих языков, их семантический объем и аспекты взаимосвязи с народным менталитетом. В статье раскрываются как общие черты, так и специфические особенности фразеологизмов с флористическим компонентом в немецком и узбекском языках, принадлежащих к разным языковым семьям.
--	---

Kirish. Tarkibida meva nomi (olma, uzum, gilos, oʻrik, shaftoli) va poliz ekinlari nomi (qovun, tarvuz, qovoq va boshqalar) ishtirok etadigan barqaror birliklar mavjud boʻlib, ular nominativ emas, balki obrazli-metaforik xarakterga ega. Bunday birliklar xalqning agrar tajribasi, estetik qarashlari va axloqiy qadriyatlarini aks ettiradi.

1. Poliz ekinlari asosidagi frazeologizmlar

Oʻzbek tilida poliz ekinlari (qovun, tarvuz, qovoq) bilan bogʻliq frazeologizmlar juda faol. Bu holat oʻzbek xalqining tarixan agrar madaniyat bilan bogʻliqligi bilan izohlanadi. Tarvuzi qoʻltigʻidan tushdi – xafsalasi pir boʻldi; Qovun tushurdi – xato qildi, uyatga qoldi; Qovoq kalla – ahmoq.

“Tarvuzi qo‘ltig‘idan tushdi” iborasi o‘zbek frazeologik tizimining “tashrif qog‘ozi” hisoblanadi. Bu ibora o‘zbek xalqining agrar-madaniy tafakkuri qanchalik boyligini ko‘rsatuvchi eng yorqin misoldir. Bu ibora insonning ruhiy tushkunligi, xafsalasi pir bo‘lishi, umidlari puchga chiqishi yoki kutilgan natijaga erisha olmaganidagi holatini ifodalaydi [Rahmatullaev, 1978, 178-b.]. Iboraning zamirida o‘zbek dehqonchilik turmush tarzi yotadi. Tarvuz O‘zbekistonda eng katta, og‘ir va qimmatli poliz ekini hisoblanadi. Uni qo‘ltiqda ushlab turish katta e‘tibor va kuch talab qiladi. Inson biror narsaga qattiq ishonsa, uni “qo‘ltig‘ida mahkam tutadi”. Agar qo‘ltiqdan tarvuz tushib ketsa, u nafaqat yerga tushadi, balki yoriladi, ya‘ni endi uni qayta tiklash imkonsiz. Tarvuz (Katta umid/maqsad) - Qo‘ltiqda ushlab turish (harakat/ishonch) - Tushib ketishi (Muvaffaqiyatsizlik). Nemis tilida aynan “tarvuz” ishtirok etgan muqobil yo‘q (chunki ularda tarvuz agrar madaniyatda markaziy o‘rin tutmaydi). Ammo semantik jihatdan quyidagilar mos keladi: “Jemandem fallen alle Felle weg” (Kimningdir barcha umidlari barbod bo‘ldi), “Den Kopf hängen lassen” (Kallasini osiltirib qolmoq - ruhiy tushkunlik ma‘nosida). O‘zbek frazeologiyasida poliz ekinlari, xususan, tarvuz komponenti insonning ijtimoiy va psixologik holatini baholashda asosiy indikator vazifasini o‘taydi. “Tarvuzi qo‘ltig‘idan tushdi” iborasi o‘zbek xalqining dehqonchilik madaniyatidagi “eng katta hosil - eng katta umid” tushunchasiga tayanadi. Nemis tilida ushbu holat ko‘proq insonning tana a‘zolari (masalan, Kopf - bosh) yoki mavhum tushunchalar orqali ifodalanadi, bu esa o‘zbek tilining nominativ ko‘lamida agrar elementlarning naqadar dominant ekanligini isbotlaydi.

“Qovun tushurdi” iborasi jamiyatda muloqot odobiga zid ish qilish, kutilmaganda nojo‘ya gap aytish yoki xato qilib, uyatli (noqulay) vaziyatga tushish ma‘nosini anglatadi [Rahmatullaev, 1978, 159-b.], ya‘ni “Xatolik” + “Ijtimoiy noqulaylik” + “Uyat”. O‘zbek polizchilik madaniyatida qovun juda nozik va qimmatli hosil hisoblanadi. Uni uzish, tashish va saqlashda alohida ehtiyotkorlik talab etiladi. Agar dehqon qovunni ehtiyotsizlik qilib yerga tushirsa, u yoriladi - uni na sotib bo‘ladi, na mehmonning oldiga qo‘yib bo‘ladi. Bu “isrof” va “epaqasizlik” ramzidir. V.V. Vinogradov tasnifiga ko‘ra, bu frazeologik birlik sanaladi, iboraning ko‘chma ma‘nosi (xato qilish) uning obrazli asosi (qovunni tushirib yuborish) bilan mantiqan mahkam bog‘langan. Inson “qovun tushurdi” deganda, xayolimizda o‘sha ehtiyotsiz harakat va uning natijasidagi yorilgan qovun (sharmandalik) obrazi jonlanadi. Nemis madaniyatida bu holatni ifodalashda meva emas, balki boshqa kundalik predmetlar yoki jonivorlar qo‘llaniladi, masalan, “Ins Fettnäpfchen treten” (Yog‘li idishni bosib olish) - Ehtiyotsizlik qilib bironing ko‘ngliga tegadigan gap aytish yoki noqulay vaziyatga tushish, “Einen Bock schießen” (Ayiqli oti qo‘yish / xato qilish) - Qo‘pol xato qilmoq. Ko‘rinib turibdiki, “tarvuz” bilan bog‘liq ibora insonning ichki (psixologik) holatini ifodalayapti, “qovun” bilan bog‘liq birlik esa ko‘proq insonning tashqi (ijtimoiy) munosabatlardagi xatosini baholashga xizmat qilmoqda.

“Qovoq kalla” iborasi insonning intellektual salohiyatini baholashda qo‘llaniladigan eng qadimiy va ommabop flora-metaforalardan biridir. Bu ibora ham o‘zbek, ham nemis tillarida deyarli bir xil modelda mavjudligi bilan bizning tadqiqotimiz uchun juda qimmatli hisoblanadi. Ushbu ibora insonning aqliy zaifligi, tushunmasligi [Rahmatullaev, 1978, 161-b.], o‘tmasligi yoki bilimsizligini kinoyaviy yoki haqoratli tarzda ifodalaydi. Qovoq - ichi bo‘sh yoki urug‘lardan iborat bo‘lgan yirik poliz ekini. Inson kalla suyagi shaklan qovoqqa o‘xshatiladi [Röhrich, L. (2003) 2-jild, 908-bet]. Agar qovoqning ichi bo‘sh bo‘lsa (yoki faqat suv va urug‘ bo‘lsa), demak, u kalla ichida “miya” yo‘qligiga, ya’ni aqliy faoliyatning yo‘qligiga ishora qiladi [Rahmatullaev, 1978; Duden, 2020]. Ya’ni Kalla (Konteyner) - Miya (Mazmun), Qovoq kalla - Mazmunsiz (bo‘sh) konteyner. V.V. Vinogradov tasnifiga ko‘ra, bu birliklar frazeologik birikma hisoblanadi, chunki bu yerda “kalla” so‘zi o‘zining to‘g‘ri (lug‘aviy) ma’nosida qolgan [Vinogradov, 1977], “qovoq” so‘zi esa “bo‘sh”, “ahmoq” ma’nosida, ya’ni o‘z ma’nosini qisman ko‘chirgan. Komponentlardan biri (kalla) erkin, ikkinchisi (qovoq) esa bog‘langan ma’noda. Bu bizning ishimizda to‘liq ekvivalentli ibora hisoblanadi: “Hohle Kürbis” (Bo‘sh qovoq) yoki “Kürbiskopf” (Qovoq kalla). Nemis tilida ham bu ibora aynan o‘zbek tilidagidek ma’noni beradi: “Ein hohler Kürbis sein” - ichi bo‘sh qovoq bo‘lmoq (ahmoq bo‘lmoq) [Duden, 2020, S. 445]. “Qovoq kalla” iborasi o‘zbek va nemis frazeologiyasida universallik xususiyatiga ega. Har ikki madaniyatda ham poliz ekinining shakli va ichki tuzilishi (bo‘shligi) inson aqliy salohiyatini baholash uchun asos bo‘lib xizmat qilgan. Bu “Konteyner metaforasi” (Miya - bilim idishi) ning lingvistik manzarada namoyon bo‘lishining yaqqol namunasidir.

2. Meva komponentli frazeologizmlar

Nemis madaniyatida Apfel (olma) komponenti markaziy o‘rin tutib, u nafaqat nasliy davomiylikni, balki masofa va zichlik kabi tushunchalarni ham ifodalaydi [Burger, 2007; Duden, 2013]. Masalan, masofani o‘lchashda qo‘llaniladigan “einen Apfelwurf entfernt” iborasi insonning jismoniy imkoniyati orqali masofani idrok etishini ko‘rsatadi. O‘zbek tilida esa poliz ekinlari (tarvuz, qovun) bilan bog‘liq frazeologizmlarning ustunligi xalqning agrar turmush tarzi va milliy mentaliteti bilan izohlanadi [Mamatov, 1991; Rahmatullaev, 1978]. Meva komponentli birliklarda “meva” obrazi insonning psixologik yoki ijtimoiy holatini ifodalaydi, ya’ni mevaning holati inson holatini o‘zida aks ettiradi. Quyida olma (Apfel) komponintining semantik maydoniga to‘xtalamiz:

Nasliy davomiylik: der Apfel fällt nicht weit vom Stamm - Olmaning tagiga olma tushadi;

Arzonlik: für einen Apfel und ein Ei - suvtekin, arzon-garov;

Majburiyat va sabr: in den sauren Apfel beißen - tishni-tishga qo‘ymoq, achchiq‘ini ichiga yutmoq;

Masofa: einen Apfelwurf entfernt - Qo‘l uzatsa yetadigan joyda, burnining tagida;

Gavjumlik: Es war so voll, dass keine Äpfel zu Boden fallen konnten - Qadam bosgani joy yo'q;

Jazolanish: j-d kommt dorthin, wo die Äpfel auf den Simsen braten - Qamoqqa tushmoq, panjara ortiga ravona bo'lmoq;

“Ana xolos, pishdi gilos!” - bu o'zbek tilining jonli so'zlashuv uslubida juda faol qo'llaniladigan, ritmik va qofiyadosh frazeologik birikmadir. Bu ibora kutilmagan, odatda yoqimsiz yoki g'alati xabar yoki vaziyat ustidan chiqilganda hayrat, kinoya yoki norozilikni ifodalash uchun ishlatiladi. Bu yerda “gilos” komponenti o'zining lug'aviy ma'nosida (meva sifatida) kelmayapti. Ibora asosan evfoniya (tovushdagi ohangdorlik) va rima (qofiya) asosiga qurilgan. “Ana xolos” (hayrat) + “pishdi gilos” (vaziyatning yakuniy, ko'pincha salbiy nuqtaga yetganiga ishora). Gilos mevasining tez pishishi va tezda chirishi yoki to'satdan “pishib” qolishi vaziyatning kutilmaganligini kuchaytirib beradi. O'zbek frazeologiyasida meva komponentlari nafaqat didaktik, balki nutqiy-vaziyatli ekspressivlikni ta'minlash uchun ham xizmat qiladi. “Pishdi gilos” iborasida gilos komponenti vaziyatning kulminatsion nuqtasini kinoyaviy bo'yoq bilan ifodalashga yo'naltirilgan. Nemis tilida ham kutilmagan, yoqimsiz vaziyatni ifodalovchi meva yoki oziq-ovqat komponentli iboralar bor: “Da haben wir den Salat!” (Mana senga salat! / Mana, ishlarni pishirib qo'ydik!).

Uzum (Traube) komponenti har ikki tilda ham juda qiziqarli semantik maydonga ega. Nemis frazeologiyasida uzum ko'pincha Ezop masallari va Bibliya syujetlari orqali kirib kelgan: die Trauben hängen (jemandem) zu hoch (Uzumlar kimdir uchun juda balandda turibdi) - erishib bo'lmaydigan narsani qo'lga kirita olmagach, uni “keraksiz” yoki “yomon” deb inkor etish (Ezopning “Tulki va uzum” masaliga ishora) [Dudenredaktion 2020, 11-jild, 766-bet]. Süße Trauben (Shirin uzumlar) - nemis tilida bu ko'proq kutilgan, shirin natija ma'nosida keladi, lekin “nordon uzum” (saure Trauben) iborasi ko'proq qo'llaniladi. Nemis tilida “Traube” komponenti ko'pincha insonning xohish-istaklari va ularning amalga oshishi o'rtasidagi masofani ifodalovchi metaforik modellarni hosil qiladi.

O'zbek xalq og'zaki ijodida uzum - mehnat, natija va sirlik ramzidir. Uzumini yegin-u, bog'ini so'rama - berilgan ne'mat yoki natijaning manbayi (qayerdan kelgani) bilan qiziqmaslik, faqat foydani ko'zlash [Shomaqsudov & Shorahmedov 2001, 384-bet]. Uzumini yegan bog'bonni tanir - Yaxshi natijaga qarab, uning egasini (ijodkorini) baholash [Rahmatullaev 1978, 198-bet].

Nemis frazeologiyasida “Traube” komponenti ko'proq subektiv-psixologik holatni (maqsadga erisha olmaslikni oqlash) ifodalasa, o'zbek tilida „Uzum“ komponenti ko'proq obyektiv-ijtimoiy munosabatlarni (mehnat va natija aloqasi) aks ettiradi [Röhrich, 2003, S. 1622; Rahmatullaev, 1978, 198-b.].

Anor (Granatapfel) komponenti nemis va o'zbek tillari o'rtasidagi lingvokulturologik tafovutni ko'rsatib beruvchi eng yorqin misollardan biridir. Bu meva bir tilda madaniyatning markazida tursa, ikkinchisida deyarli frazeologik faollikka ega emas. Anor (Granatapfel) komponenti o'zbek tilida sermahsullik, go'zallik va ichki birlik ramzidir: Anordek qizarmoq - kuchli uyalish yoki hayajon holati. Bu yerda anorning rangi inson yuzidagi fiziologik o'zgarishga qiyoslanadi. Bir anorga ming bemor - biror tanqis narsaga nisbatan talabgorlarning ko'pligi [Rahmatullaev, Sh. 1978, O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. 34-bet].

“Granatapfel” nemis frazeologiyasida deyarli uchramaydi. Bu meva nemis xalqi uchun ekzotik hisoblangani sababli, uning o'rnini ko'proq Apfel (olma) egallagan.

O'rik (Aprikose) komponenti o'zbek mentalitetida ko'pincha “erta pishar”lik, “shirinlik” va ba'zan “qadrsizlik” ramzi sifatida keladi. “O'rigidan danagi (mag'zi) shirin” - farzanddan ko'ra uning farzandi (nabira) azizroq ekanligiga ishora qiluvchi eng mashhur oilaviy metafora. Bu yerda “o'rik” - farzand, “danak” - nabira [Shomaqsudov, Sh., & Shorahmedov, Sh. 2001, O'zbek xalq maqollari. 154-bet]. “O'rik pishsa, pishdi, pishmasa – qishdi” - biror ishga nisbatan mas'uliyatsizlik, “bo'lsa bo'lar, bo'lmasa yo'q” qabilida ish tutish [Rahmatullaev, Sh. 1978, O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. 142-bet].

Nemis frazeologiyasida “Aprikose” komponenti nafaqat estetik yoki agressiv, balki evfemistik funksiyani ham bajarishi mumkin. O'zbek va nemis frazeologiyasida flora komponentlari inson hayotining yakunini (o'limni) ifodalashda o'ta nozik lisoniy vosita vazifasini bajaradi. Nemis tilidagi “In die Aprikosen gehen” (o'rikzorga bormoq) va o'zbek tilidagi “Qovun poyloqqa ketmoq” iboralari orasida absolyut funktsional muqobillik mavjud. Har ikki madaniyatda ham hayotning tugashi “bog' yoki polizga qaytish” (tabiatga qaytish) metaforasi orqali “yumshatib” ifodalangan. Bu esa dehqonchilik madaniyatiga ega xalqlarning olam haqidagi lisoniy manzarasi (linguistic worldview) mushtarak ekanligini isbotlaydi [Ebner, 2019, 239-b.].

Avstriya nemis tilida (Österreichisches Deutsch) o'rikka nisbatan “Marille” so'zi nafaqat gastronomik, balki frazeologik jihatdan ham Germaniya nemis tilidagi “Aprikose”ga nisbatan qo'llaniladi, masalan, “Jemandem eine Marille geben” (Kimgadir o'rik bermoq) - Avstriya (ayniqsa Vena) ko'cha tilida kimnidir urish, tarsaki tushirish yoki kutilmagan zarba berishni anglatadi [Österreichisches Wörterbuch (ÖWB), 42-nashr, 422-bet]; “Eingeweichte Marille” (Ivtilgan o'rik) - shashti past, irodasiz yoki juda yumshoq tabiatli odamga nisbatan aytiladigan haqoratli-kinoyaviy o'xshatish [Ebner, J. 2019. Wie sagt man in Österreich? Wörterbuch des österreichischen Deutsch. 238-bet]. Shimoliy nemis tilida “Aprikose” komponenti neytral-nominativ xarakterga ega bo'lsa, janubiy (avstriya) nemis tilidagi “Marille” komponenti ko'proq ekspressiv-konnotativ vazifani bajaradi. Bu esa floristik frazeologiyaning areal (hududiy) til xususiyatlari bilan chambarchas bog'liqligini isbotlaydi.

O‘zbek tilida o‘rik (Aprikose) komponentining sermahsulligi xalqning ming yillik agrar an‘analari bilan bog‘liq bo‘lsa, nemis tilida ushbu komponentning sustligi nemis lingvomadaniy maydonida mevalar ierarxiasining boshqa (olma, nok) turlar tomonidan band etilgani bilan izohlanadi [Mamatov, 1991, 44-b.; Duden, 2020, S. 104], chunki o‘rik Markaziy Osiyo (O‘zbekiston) madaniyatida uzoq yillik tarixga ega fundamental o‘simlikdir. Germaniyada esa o‘rik faqat iliqroq hududlarda (masalan, Reyn vodiysida) nisbatan kechroq ommalashgan.

Shaftoli mevasi bo‘yicha har ikki tilda qiziqarli qarama-qarshilik (antiteza) mavjud: nemis tilida “Eine Haut wie ein Pfirsich haben” (Shaftolidek teriga ega bo‘lmoq), ya‘ni go‘zallik va mayinlik ramzi [Dudenredaktion 2020, 578-bet]. O‘zbek frazeologik tizimida shaftoli (Pfirsich) komponenti o‘zining pishgan holatida ijobiy estetik bahoni (go‘zallikni) ifodalasa, uning qoqi (quritilgan) ya‘ni “Shaftoli qoqi” shakli insonning fizik xastaligi, qariligi yoki o‘ta ozg‘inligini ifodalovchi salbiy bahoga ega bo‘ladi [Rahmatullaev, 1978, 202-b.]. Nemis tilida ushbu lisoniy model “Dörrpfleume” (quritilgan olxo‘ri) obrazi orqali ifodalanishi floristik metaforalarning madaniy-landshaftga bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Meva komponentlari ko‘pincha quyidagi konseptual metaforalarga asoslanadi: meva – natija, nordon meva – yoqimsiz holat, pishgan meva – yetuklik, chirigan meva – buzilish, quritilgan meva – xastalik, keksalik, ozg‘inlik.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, o‘zbek tilida poliz va meva komponentlari agrar mentalitet bilan bog‘liq [Mamatov, 1991] holda juda faol, nemis tilida esa “Apfel” komponenti ramziy jihatdan yetakchi [Burger, 2015]. O‘zbek frazeologiyasida didaktik va axloqiy baholash ustun. Nemis tilida individual-psixologik tavsif va ironik konstruksiyalar faolroq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Burger, H. (2015). Phraseologie: Eine Einführung am Beispiel des Deutschen (5. Aufl.). Erich Schmidt Verlag.
2. Dudenredaktion (2020). Redewendungen: Wörterbuch der deutschen Idiomatik (Band 11, 5. Aufl.). Dudenverlag.
3. Ebner, J. (2019). Wie sagt man in Österreich? Wörterbuch des österreichischen Deutsch. Dudenverlag.
4. Mamatov, A. (1991). O‘zbek tili frazeologizmlarining shakllanishi masalalari. Fan.
5. Rahmatullaev, Sh. (1978). O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati. O‘qituvchi.
6. Röhrich, L. (2003). Lexikon der sprichwörtlichen Redensarten. Herder.
7. Shomaqsudov, Sh., & Shorahmedov, Sh. (2001). O‘zbek xalq maqollari. Sharq.
8. Vinogradov, V. V. (1977). Ob osnovnix tipax frazeologicheskix edinit v russkom yazike. Nauka.

9. Xamidova Tilovatxon Raxmatjonovna, (2025). Nemis va o'zbek tillaridagi flora komponentli frazeologizmlarda ranglarni ifodalanishi. Results of national scientific research international journal, 4(5), 66–74

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15419724>

10. Xamidova, T. (2025). Peculiarities of Phraseological Units with Floral Components in the German language. The Lingua Spectrum, 3(1), 307–311.
<https://lingvospektr.uz/index.php/lngsp/article/view/536>